

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JARAYONDA PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHI O'QITUVCHISINING TAYYORGARLIGI

Aliqulov Saloxiddin Turdimuradovich

Jizzax politexnika instituti

"Professional ta'lim" kafedراسi dosenti

alikulovsalohiddin6@gmail.com

Rajabov Yorqinbek Sayfiddin o'g'li

Jizzax politexnika instituti

"Bino va inshootlar qurilishi"

kafedراسi v.b. dotsenti, texnika

fanlari falsafa doktori (PhD)

eduyoyauz@gmail.com

Annotasiya: o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo'yilayotgan zamonaviy didaktik va metodik talablarni amalga oshiruvchi, umumkasbiy fanlar bo'yicha o'quv materiallarini havola etish shakllarini aks ettirish.

Kalit so'zlar: materiallar qarshiligi, mashina va mexanizmlar nazariyasi, mashina detallari, materialshunoslik, konstruksion materiallar texnologiya, transport.

Buyuk kelajak yaratish va jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga dadil qadamlar bilan intilayotgan Respublikamiz uchun yuqori malakali, raqobatbardoshli mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim va dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi umumbashariy qadriyatlar, O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarning boy madaniy merosi, fan va texnologiyalar asosida yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega, ijodiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil holda mo'ljalni to'g'ri ola biladigan, istiqbolli vazifalarni oldindan ko'ra oladigan va ularni oqilona hal etishga qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlash ko'zda tutilgan bo'lsa, kadrlar tayyorlash milliy modeli ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali, raqobotbardosh kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoit yaratib berish, ya'ni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarga mushtarak tarzda ta'lim- tarbiya mazmunini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan.

Belgilangan vazifalar asosida tadqiqotimiz obyekti bo'lgan 60112400 – Professional ta'lim (Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)) yo'nalishida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilar tayyorlash o'quv reja va dasturlari tahlil etildi. Mazkur tayyorlov yo'nalishi bo'yicha quyidagi fanlar bloki o'qitilishi ko'zda tutilgan: majburiy fanlar bloki va tanlov fanlar turlari bloki.



Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi bir necha qism tizimlardan iborat bo'lib, ular ham o'z navbatida o'z qism tizimlari va elementlaridan tashkil topgan.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha tayyorgarligi milliy va umuminsoniy madaniyat xususiyatlari, inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an'analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning inson ongiga ta'siri, turmush va dam olish haqidagi bilimlarni, masalan, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishini taqozo etadi. Mazkur blok mazmuni "Majburiy fanlar" bloki bo'yicha tayyorgarlik DTS dagi bakalavrlarning darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo'yilgan talablar asosida belgilanadi.

Majburiy fanlar bloki ichida matematik va tabiiy fanlar bo'yicha tayyorgarligi - dunyoni bilishning maxsus usuli bo'lgan matematika, uning tushuncha va qoidalarining birligini bilishni, fizika va nazariy mexanika kurslari esa kimyo, ekologiya kurslarini mukammal egallashni nazarda tutadi.

Majburiy fanlar bloki turkumida umumkasbiy tayyorgarlik fanlar bo'yicha tayyorgarligi bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining ijtimoiy borliqni his eta bilish va tushunish qobiliyati, hayot yo'lini mustaqil tanlashi, o'zining jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi, faoliyatini tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Tanlov fanlar bo'yicha tayyorgarligi - bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining o'rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog'liq mantiqiy fikrlashi, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat. U mustaqil fikrlash qobiliyatlari majmui bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatini shaxsiy baholash borasidagi bilim va malakalari kiradi.

"Loyihalash – konstruktorlik – texnologik" kursining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: zaruriy darajadagi nazariy bilimlar bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish; mustaqil texnik fikrlash, mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirish; texnik adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Umumkasbiy tayyorgarlik tarkibiga kiruvchi fanlarni esa o'z navbatida quyidagi integrallashtirilgan o'quv kurslari bo'yicha tasniflash mumkin: 1) psixologik-pedagogik turkum o'quv kursi; 2) loyihalash – konstruktorlik – texnologik o'quv kurslari; 3) tuzilish va nazariy turkum o'quv kursi; 4) ekspluatatsion turkum o'quv kursi. Ushbu turkum o'quv kurslari o'z ichiga oladigan o'quv fanlar ro'yhati rasmda keltirilgan. Biz o'z tadqiqotimizda "Loyihalash -



konstruktorlik - texnologik" turkum o'quv kurslaridagi "Materiallar qarshiligi", "Mashina va mexanizmlar nazariyasi", "Mashina detallari", "Materialshunoslik, konstruksion materiallar texnologiya" o'quv kurslarining kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda ahamiyati va o'rniga asosiy e'tibor qaratdik. Chunki, umumkasbiy tayyorgarlik fanlar bloki bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur kursni o'zlashtirish bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisiga fundamental bilimlarni egallash, texnik obyektlarning tuzilishi va ishlash tamoyillarini, shuningdek ixtisoslik fanlarini samarali o'rganish imkonini beradi, ya'ni, ularni o'rganishda olingan bilim va egallangan ko'nikmalar ixtisoslik fanlarida qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamidov J.A. Основные компоненты информационной культуры учителя профессионального Хабаршысы, № 4, vestnik. Shymkentskogo sosialno - pedagogicheskogo universiteta.- Shymkent- 2008.

2. Alikulov S. T. Mechanisms of implementation of interdisciplinary relationships between public education and vocational sciences. Effektivnost primeneniye innovatsionnykh texnologiy i texniki v selskom i vodnom khozyaystve» mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya onlayn-konferensiya 25-26 sentyabrya, 2020 goda.

3. Xamidov J.A. Modelirovaniye prosessa formirovaniya gotovnosti budushyego uchitelya professionalnogo obrazovaniya k primeneniyu informatsionnykh texnologiy// Molodoy uchuonyy.-Chita, 2011.-№12

4. O.Azizov Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini badiiy asarlar orqali rivojlantirish. Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslibiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. OAK Jurnal. 2021y.-1 son.

5. Aliqulov S.T, Azizov O.E., The structure and content of the system for the formation of communicative competencies of future teachers. current research journal of pedagogics 2(6): 141-151, june 2021

6. Turabov Anvar Mavlonqulovich. Oliy ta'limda kredit-modul tizimining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, "Ta'lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. Jizzax viloyati XTXQT va MO hududiy markazi, Jizzax 2021 yil. 20 noyabr, 609-613 b.

